

ARAB TILI DARSLARIDA INFOGRAFIKADAN FOYDALANISHNING TALABALAR GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sirojiddin Sotvoldiyev

*Oriental universiteti Filologiya fakulteti Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi
sirojiddinsotvoldiyev454@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada til egasi bo'lmaganlarga chet tillarini o'qitishda bilim-axborotni vizual ko'rinishda taqdim etishning ahamiyati xususida so'z boradi. Muallif arab tili darslari misolida axborotni vizual taqdim etishning samarali shakli bo'lgan infografikalardan foydalanish orqali o'quvchi-talabalarda gapirish kompetensiyasini jadal rivojlantirish mumkinligiga e'tibor qaratadi. Maqolada, shuningdek, infografikalar tayyorlash, darsda ulardan foydalanish bo'yicha ham muhim yo'l-yo'riq va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: arab tili, til egasi bo'lmaganlar, vizual axborot, vizualizatsiya, infografika, gapirish ko'nikmasi, til kompetensiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность наглядного представления знаний при обучении иностранным языкам неносителей языка. На примере занятий арабским языком автор обращает внимание на возможность быстрого развития речевой компетенции учащихся с помощью инфографики, которая является эффективной формой визуального представления информации. Также в статье приведены важные рекомендации и рекомендации по подготовке инфографики и ее использованию на уроках.

Ключевые слова: арабский язык, неносители языка, визуальная информация, визуализация, инфографика, разговорные навыки, языковые компетенции.

Absract. This article discusses the importance of visual representation of knowledge when teaching foreign languages to non-native speakers. Using the example of Arabic language classes, the author draws attention to the possibility of quickly developing students' speech competence with the help of infographics, which is an effective form of visual presentation of information. The article also provides important tips and advice for preparing infographics and using them in the classroom.

Keywords: arabic language, non-native speakers, visual information, visualization, infographics, speaking skills, language competencies.

Axborot almashishning tezlashuvi va texnika taraqqiyoti hayotimizning har bir jabhasini, shu jumladan xorijiy tilni o‘zlashtirish uchun sarflanadigan vaqt mezonlarini ham o‘zgartirmoqda. Avvallari til egasi bo‘lmaganlarga chet tilini o‘rganish uchun kerak bo‘lgan ta‘lim soatlari miqdori bugun zamonaviy texnik vositalar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali deyarli ikki baravarga qisqartirilmoqda. Bu jarayonda chet tili darslarida bilim-axborotlarni vizual ko‘rinishda taqdim etish, olingan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda vizual vositalardan foydalanish yaxshi natija bermoqda.

Ma‘lumki, vizualizatsiya yangi tilni o‘zlashtirish va gapirish ko‘nikmasini shakllantirishning asosi sanaladi. Chizmalar, fotosuratlar, rasmlar, assosiogramma va infografika kabi vizual vositalar yordamida o‘quvchilarning nutq faolligini rag‘batlantiradigan va chet tilida gapirishga bo‘lgan ehtiyojini keltirib chiqaradigan o‘quv vaziyatlarini yaratish mumkin. Xususan, axborotni taqdim etishning grafik usuli sanalgan infografika (رسم بياني) rasm ko‘rinishidagi ma‘lumotlar bo‘lib, u matn, ko‘rsatkichlar, diagrammalar, bloklar va ikonlarni o‘z ichiga olishi mumkin (1-rasm).

Infografika katta hajmdagi ma‘lumotlarni kichik hajmda ko‘rsatishga imkon beradi. Qolaversa, qiziqarli rasm o‘quvchi-talabalarning e‘tiborini jalb qilishga yordam beradi, shuning uchun bu format ommaviy ravishda qo‘llaniladi. Bugungi zamonaviy ta‘lim tizimida ham infografik materiallardan ko‘proq foydalanish tavsiya etilayotgani ham bejiz emas.

Arab tili darslarida esa o‘tilgan mavzuni takrorlash yoki o‘quvchilarning til bilish darajasidan kelib chiqib, og‘zaki nutq mahoratini rivojlantirishga qaratilgan turli murakkablikdagi infografikalarni qo‘llash mumkin. Masalan, boshlang‘ich darajada (A1-A2) ilk asosiy bilimlar (*kishilik olmoshlari, birikma olmoshlari, hozirgi-kelasi zamon fe‘li va b.*) egallangach, «مَنْ أَنَا؟» («Men kimman?») deb nomlangan infografika (2-rasm) yordamida o‘quvchi-talabalar o‘zlari haqida ma‘lumot berishlari mumkin. Bu infografikada taqdim etilajak nutqning asosiy elementlari berilgani bois har bir o‘quvchida gapirishga qiziqish kuchayadi va fikrlarini tortinmay izhor qila oladi, chunki endi uning qo‘lida tayyor qo‘llanma mavjud.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish darslarida infografikaning **analitik yoki raqamli infografika** (uning yordami bilan statistik ma‘lumotlar taqdim etiladi, unda juda ko‘p raqamlar, diagrammalar, grafiklar mavjud bo‘lishi mumkin), **yangiliklar infografikasi** (yangi mavzu haqida aniq hikoya qiladi, mavzuning



asosiy nuqtalari xronologiyasini va tadrijiy tarzda bo'layotgan voqealarning muhim bosqichlarini aks ettiradi), **qurilish infografikasi** (muayyan mavzu yoki obyektning tuzilishini yoki uning mexanizmini, ba'zan tarixiy voqeaning xronologiyasini va sabablarini ko'rsatadi), **qiyosiy infografika** (turli mavzu yoki obyektlarning xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi) kabi turlaridan foydalanish mumkin.

Masalan, 3-rasmdagi infografikada 12-avgust xalqaro yoshlar kuniga oid qurilish infografika berilgan bo'lib, o'qituvchi uning asosida o'quvchi-talabadan kun tarixiga oid ma'lumotlar bilan birga mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatalash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida hikoya qilib berishni ham so'raydi. Bu esa o'quvchini chet tilida fikrlashga va fikrlarini erkin bayon qila olish mahoratini shakllantirishiga turtki beradi. Qolaversa, bunday infografikalar yozish mahoratini ham rivojlantirishga qo'l keladi.



Shuningdek, 4-rasmdagi kabi analitik infografika orqali nafaqat talabalarni o'zlashtirilgan nisbatan murakkab grammatik mavzularni (*sanoq sonlar, foizni ifodalash va b.*) amaliyotda qo'llashga undashga erishish mumkin, balki uning real hayoti bilan bog'liq muammoli mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.

Infografika tayyorlashda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish kerak? Avvalo, infografikani matn bilan to'ldirib yubormaslik lozim. Mavzu yuzasidan asosiy ma'lumotlar tasvir orqali amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Infografika o'z rolini bajarishi uchun unda qo'llanma sifatida ko'p matn berilmasligi kerak, bu materialni idrok etishni sezilarli darajada murakkablashtirib yuboradi.

Masalan 5-rasmdagi infografikada faqat hafta kunlarining nomlari ko'rsatilgan, har bir kunda bajarish mumkin bo'lgan harakatlar suratlar yordamida ifodalangan. O'quvchi bu infografika vositasida haftalik faoliyatini bayob qilib bera oladi.



Bundan tashqari, infografikada ayrim tafsilotlarni tushuntirish uchun iboralarni qo'shish mumkin. Leksik-semantik yuk tashimaydigan elementlarni olib tashlash kerak. Infografika taqdim etilgan ma'lumotlarning kontsentratsiyasida kuchli bo'ladi. Har bir chiziq, ko'rsatkich yoki belgi ma'noga ega bo'lishi kerak. Talaba taqdim etilgan ma'lumotni osongina idrok eta olsin va haddan tashqari ko'p bloklar, rasmlar va o'qlarda chalkashib ketmasin.

Hozirgi kunda internet tarmog'ida infografika yaratish uchun **Canva**, **Easel.ly**, **Piktochart**, **Vennage**, **Creately** kabi saytlardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. خالد حسين أبو عمشة. 100 رسم بياني. -الأردن: 2022
2. Sotvoldiev, S. (2023). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 62-66.
3. Sotvoldiev, S. (2022). PRINCIPLES OF COMPOSITION OF SCIENTIFIC-CRITICAL TEXT OF IBN SAYYID'S DICTIONARY" AL-MUSALLAS". Thematics Journal of History, 8(1).
4. Maxammaddin o'g'li, S. S. (2023). IBN MOLIK HAYOTI VA UNING ARAB TILSHUNOSLIGIDA TUTGAN O'RNI. Vol. 2 No. 11 (2023): Innovative Development in Educational Activities (IDEA)
5. Sirojiddin, S. (2023). «МУСАЛЛАС» ТУРИДАГИ ЛУФАТЛАРНИНГ АРАБ ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДАГИ ЎРНИ. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356-365.